



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Наргиза Музафаровна Бабаева Жаҳон лизинг хизматлари бозорининг ҳолати таҳлили ва ўзбекистонда унинг ривожланиш тенденциялари.	70
Рамз Зоиржон ўғли Мухаммадиев Тиббий хизмат сифатини яхшилашда юқори технологиялар ўрни.	77
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Гульнара Мардиевна Шадиева, Бону Бахтиёрвна Давронова Туризм в Узбекистане: драйвер экономического роста и социальной стабильности	80
Maksuda Valeriyevna Israilova Sog'lomlashtirish turizmning mohiyati va rivojlanish tarixi.	84
Dilshod Usmanovich Ruzmanov Turizmда madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish	90
Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova Barqaror turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar	94
Фарход Абдихидович Бекназаров, Азиза Пирмаматовна Махмудова Мамлакатимиз экотизими ва маданий меросини комплекс сақлаш ҳамда минтақада экотуризмни ривожлантиришда геопапркларнинг ўрни	99
Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova Iqtisodiyotni raqamlashtirishda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	103
Камилла Бахромовна Суюнова, Олтинбек Бобирович Умаров Роль маркетинговых стратегий в развитии цифровизации сферы туризма в Узбекистане	108
Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Sitara Otabekovna Xamroyeva Jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar turizmini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	111
Parvina Asliddin qizi Xolmatova Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	114
Xasan Ibragimovich Turdibekov O'zbekiston sharoitida overturizmni baholash uslubiyatini takomillashtirish	118
Aziza Yusufbekovna Talibova O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari	122
Нодир Нозимович Негматов Роль визуальных и культурных стимулов Узбекистана в формировании лояльности туристов: нейромаркетинговый подход.	127
Nodirjon Abduxalil o'g'li Xoliqov, Ibragim Xudayarovich Nimatov O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati: tahlillar va istiqbollar	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова, Ситора Отабековна Ҳамраева Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Big Data технологияларидан фойдаланиш йўллари	138
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Nigina Marupovna Usmanova, Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish yo'llari	140
Gulshan Akmalovna Abduvohidova Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari	145

ekologik monitoring va investitsiyalarni jalb etish kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Amalda ushbu takliflarni tatbiq etish orqali mamlakatning turizm salohiyatini oshirish, iqtisodiy o‘shishga ta’sir ko‘rsatish va mahalliy aholi farovonligini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Tourism Organization (2019). Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030. Madrid: UNWTO.
2. Sharpley, R. & Telfer, D. (2015). Tourism and Development: Concepts and Issues. Bristol: Channel View Publications.
3. Hall, C. M. & Page, S. (2014). The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space. London: Routledge.
4. Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2008). Tourism: Principles and Practice. Harlow: Pearson Education.
5. Middleton, V. T. & Clarke, J. (2012). Marketing in Travel and Tourism (4th ed.). London: Routledge.
6. Карчевская Е.Н. Методическое обеспечение регионального развития и пространственной дифференциации туризма (на примере Гомельской области): Автореферат диссертации на соискание уч. ст. канд. геогр. наук. - Калининград, 2018. - 22 с.

<p>Д.Рузманов</p> <p>Совершенствование методов эффективного использования культурно-исторических ресурсов в туризме</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются факторы, влияющие на эффективное использование потенциала культурно-исторических ресурсов в туризме. Выявлены регионально значимые показатели факторов формирования туристско-рекреационного потенциала и на этой основе предложена методика оценки туристского потенциала регионов.</p> <p>Ключевые слова: туристские ресурсы, культурно-исторические ресурсы, туристский потенциал, показатели оценки ресурсов.</p>	<p>D.Ruzmanov</p> <p>Improving the methods of effective use of cultural and historical resources in tourism</p> <p>Abstract. The article examines the factors influencing the effective use of the potential of cultural and historical resources in tourism. Regionally significant indicators of factors in the formation of tourism and recreational potential are identified and, on this basis, a methodology for assessing the tourism potential of regions is proposed.</p> <p>Keywords: tourism resources, cultural and historical resources, tourism potential, resource assessment indicators.</p>
--	--

Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova – “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BARQAROR TURIZM RIVOJLANISHIDA MUAMMO VA IMKONIYATLAR

Annotatsiya. Maqolada barqaror turizm tizimini rivojlantirishdagi duch kelinayotgan ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy muamollar tahlil qilinib, o‘rganilgan muammolar yechimini topishdagi istiqbolli rejalar haqida yozilgan. Turizm sohasi keltirib chiqaradigan muammolar, ekologik zarar, madaniy merosning yo‘qolishi, barqaror turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy madaniy jihatlarni ham o‘z ichiga olib, hozirgi davrda asta-sekin, bizning kundalik hayotimizga kirib borayotgani, tabiiy resurslarni tejash va oqilona iste‘mol qilish, barqaror rivojlanishda resurslarni kam sarflab, energiya tejaydigan yondashuvdan foydalanishni rivojlantirish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik zarar, madaniy merosning yo‘qolishi, turizmdagi ekologik va ijtimoiy madaniy jihatlarni tejash, resurslarni kam sarflash, energiya tejaydigan yondashuv.

Kirish. Turizm dunyodagi eng muhim va eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanmoqda. Lekin bu rivojlanish, ayniqsa barqarorlik masalalari haqida gap ketganda, o‘zi bilan ko‘plab muammolarni olib kelmoqda. Ushbu maqolada turizmning barqaror rivojlanishi bilan

bog‘liq muammolar va imkoniyatlar muhokama qilinadi va turizmning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta’siri tahlil qilinadi. Turizmni rivojlantirishga barqaror yondashuv zarurligini ta’kidlaydi va iqtisodiy farovonlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy adolat talablari asosida barqaror turizmni rivojlantirish uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lgan ba’zi strategiyalarni o‘rganadi.

O‘zbekistonda hozirgi zamonda “Barqaror turizm” – so‘zi juda keng qo‘llanilmoqda va asta-sekin, bizning kundalik hayotimizga kirib keldi. Bu trend atama kundalik hayotda tabiiy resurslarni tejash, ularni oqilona iste‘mol qilish va barqaror rivojlanish vositalarini qo‘llashga undaydi. Borgan sari odamlar energiya tejaydigan yondashuvdan foydalanishni afzal ko‘rishmoqda, chunki tabiiy resurslar qancha kam sarflansa, kelajak avlodga shuncha ko‘p qoladi. Shunga qaramay, biz hali bu yo‘nalishda ko‘p ishlarni qilishimiz kerak, eng muhimi, bugungi kunda investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy o‘rish, yangi ish o‘rinlari yaratish va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradigan ekologik barqarorlikni oshirishdir. Amalga oshirilgan ishlar oxir oqibat, bugungi kunda boshlangan o‘zgarishlar, barqaror ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirishga va ertaga oqilona foydalanishga yordam beradi. Biz hayotimizni yaxshiroq va qulayroq qilishga intilayapmiz, bunga erishayapmiz. Bu intilishlarimiz esa kelajak avlodga sifatli hayot kechirishlari uchun atfodagi yashillikni saqlagan holda qoldirishimiz kerak.

Birinchi, barqaror turizm-bu tendensiya. Bugungi kunda butun dunyo nafaqat turizm sohasida, balki xizmat ko‘rsatish sohasida ham ishlaydi va barcha iqtisodiy jarayonlarning, shu jumladan biznesning barqarorligini ta‘minlashga intilmoqda.

Biroq O‘zbekiston bu tendensiyalarga biroz kech qo‘shildi. Ammo, eng muhimi, u kirib keldi va hozirgi paytda ushbu sohada ko‘plab kompaniyalar ishlamoqda. Bizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirayotgani, bizga yetib kelgan tendensiya bugungi kun turizmning eng muhimlaridan biriga aylanishiga va birinchi navbatda raqobatbardoshligimizni ta‘minlash uchun yaxshi xizmat qilmoqda. Barqarorlikning o‘zi nima?. Barqarorlik tushunchasi, umuman olganda, sirtida yotadigan juda oddiy narsa aslida - bu biznesning va tabiiy resurslarimizning barqarorligini, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni ta‘minlash, bu bugungi kunda inson resurslarini rivojlantirish zarurligi haqida gapirish imkoniyatidir. Ayniqsa, qishloq turizmiga kelsak, biz ayollarning roli va ularni turistik xizmatlar ko‘rsatish sohasida ishlashlari uchun resurslar bilan ta‘minlash haqida ko‘p gapiramiz. Bu yerda juda ko‘p tarkibiy qismlar mavjud, hayvonlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ammo asosiy tarkibiy qismlardan biri, albatta, oqilona barqaror iste‘moldir. Barqarorlik bizga nima berishi mumkin – bu bizga oqilona barqaror iste‘molni beradi. Barqarorlik bu yangi narsa emas, barqarorlik biz mohirona foydalanishimiz kerak bo‘lgan vositadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. K.Kater (2018) Turizm va barqaror rivojlanish: rivojlanish, globallashuv va uchinchi dunyoda yangi turizm. Teylor va Frensis. Katerning asari turizm va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganadi. Rivojlanish va globallashuv jarayonlari uchinchi dunyo mamlakatlarida yangi turizm shakllarini keltirib chiqarishi haqida mulohaza yuritiladi.

Fennell, D. (2019). Ekoturizm. Routledge. Fennellning "Ekoturizm" asari ekoturizmning nazariyasi va amaliyotini chuqur o‘rganadi. Muallif ekoturizmni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy prinsiplarni, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarini tahlil qiladi. Asar barqaror turizm amaliyoti orqali sayyohlikning atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirini kamaytirish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Hunter, K. (Tahr.). (2002). “Kelajakdagi sayyohlik yo‘nalishlarini himoya qilish”. Jahon turizm tashkiloti. "Kelajakdagi sayyohlik yo‘nalishlarini himoya qilish" asari sayyohlikni barqaror rivojlantirishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Ushbu tahrirlangan kitobda turizm sohasidagi muhim masalalar, jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniyat va mahalliy jamoalar bilan aloqalar ko‘rib chiqiladi.

UNWTO (2017). Barqaror turizm sari. Global barqaror turizm hisoboti. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti. UNWTOning "Barqaror turizm sari" nomli Global barqaror turizm hisoboti 2017-yilda nashr etilgan va sayyohlik sohasida barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun tavsiyalar beradi. UNWTO ushbu hisobot orqali davlatlar va turizm industriya-

sini barqaror sayyohlikka yo‘naltirilgan siyosatlarni amalga oshirishga chaqiradi.

Weaver, D. (2014). Barqaror turizm: nazariya va amaliyot. Routledge. Muallif nazariy asoslar va amaliy yondashuvlarni birlashtirish orqali tahlil qilgan. Muhim strategiyalardan misollar keltirgan.

JST (2018). Turizmning diqqatga sazovor joylari, 2018 nashri. Jahon sayyohlik tashkiloti. Hisobot turizmdagi madaniy meros obyektlari va obidalarning o‘rni, ularni iqtisodiy, madaniy va ekologik ahamiyati to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, sayyohlik yo‘nalishlari, eng ommabop joylar va sayohatchilar orasida umuman nimalar mashhur ekanligi haqidagi ma‘lumotlar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda turizm sohasidagi barqarorlikni ta‘minlash usullari o‘rganildi. So‘rovlar, intervyu va statistik ma‘lumotlar orqali turizm joylari va sayyohlar haqidagi hisobotlar o‘rganildi, tahlil qilindi.

Bu sohani rivojlantirayotgan barcha yangi tendensiyalar va standartlar analiz qilindi. Turizm faoliyatini muntazam ravishda nazorat qilish, natijalarni baholanishi va o‘zgarishlar monitoringi o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida qo‘yidagi usullardan: turizm sohasidagi muammolarni va imkoniyatlarni aniqlash uchun ma‘lumotlarni tahlil qilishda - analitik, ekspertlar bilan fikr almashish - muhokama, turizm faoliyati ishtirokchilari bilan intervyu o‘tkazish orqali maqolaga ma‘lumotlar yig‘ish – so‘rovnoma o‘tkazish, turizm sohasida iqtisodiy, siyosiy, ekologik yo‘nalishlarni o‘zaro bog‘liqligi va o‘zgarish jarayoni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Bu usullar tadqiqotda muammolar va imkoniyatlarni aniqlashda samarali bo‘ladi. Ushbu metodologiya turizm resurslarini samarali va barqaror foydalanish uchun kerak.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston turizmi uchun qimmatli loyihalar zarur. Dastur mahalliy, milliy va mintaqaviy darajada muayyan ekologik muammolarni hal qilish uchun, ekologik adolatni himoya qilishga qaratilgan ayollar, yoshlar, nogironlar va an‘anaviy jamoalardan iborat faol va tashabbuskor guruhlarni tashkil etish va ular bilan birga loyihalar yozishni tashkil etish lozim. Ushbu loyihalar O‘zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish bo‘yicha Yevropa tajribasiga ega bo‘lishimiz kerak bo‘lgan jarayonlarni boshlashi kerak. Loyihalar orqali biz o‘z bozorimizdagi soha mutaxassislari bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz va ushbu hodisaning barqarorligini ta‘minlashda faoliyat olib boramiz.

Barqarorlik - bu tendensiya, bugungi kunda butun dunyo ushbu tendensiyaga intilmoqda. Va, albatta, O‘zbekistonda faoliyat olib borishga va ishlashga qiziqqan xalqaro tashkilotlarni taklif qilish orqali, xalqaro tashkilotlar mutaxassislari ushbu tushunchalarni, global miqyosda amalga oshirish uchun o‘z resurslari, tajribalari va bilimlarini bizga sarflashlarini amalga oshirish kerak. Dam olish maskanlarida audit o‘tkazib, mehmonxonalar va mehmon uylarida biznes qanday darajada ketayotganini baholash va tahlil qilish kerak.

Turli xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlikda sertifikatlashtirish bo‘yicha treninglar tashkil etish va barqaror turizm sohasida sertifikatlangan auditorlarni tayyorlash kerak. Bunday loyihalar yaxshi va qiziqarli tajriba berib, yaxshi baholash imkonini beradi. Ekoturizm va barqaror turizm sohasida faoliyat olib borayotgan barcha xodimlar va mutaxassislar sertifikat olishlari kerak. Yana, eng muhimi, ofislarda, tashkilotlarda ish jarayonini tashkil etishda, barqaror tushuncha prinsipial jihatdan bir xil omillar, energiya tejaydigan texnologiyalar, plastmassa, agar u hamma joyda ishlatilsa, uni qayta ishlash uchun topshirishni tashkil etish va ish yuritish materiallarini minimallashtirish kerak. Elektron hujjat aylanishini tizimlarda to‘liq amalga oshirish kerak. Qayta tiklanadigan elektr manbalaridan foydalanish kerak. Hozirgi zamon turizmida bu tendensiya rivojlana boshladi. Ko‘plab turoperatorlar axlatni saralashni boshladilar. Sayyohlik agentliklari va turoperatorlarning eng asosiy vazifalaridan biri bu, ular o‘z faoliyati davomida, tabiatiga va atrof-muhitga nisbatan insoniy va oqilona munosabatni boshlashlari kerak. Bizda tarixiy va madaniy yodgorliklarning o‘ziga xos xususiyatlari juda ko‘p. Va ko‘plab turmarshrutlar va ekskursiyalarni tashkil etish jarayonida, tashkilotchilar transportdan juda ko‘p foydalanishadi. Barcha turkompaniyalar elektr transport vositalari bilan ta‘minlanishini tashkil etish choralari ko‘rishi va tabiatni saqlab qolish uchun elektr energiyasidan foydalanishni

ko‘paytirish kerak.

Turizmning ta'siri:

Hozircha turizm tabiatga ozgina zarar yetkazmoqda. Turoperatorlar sayyohlar uchun marshrutlarni ishlab chiqishda iloji boricha ko‘proq tabiat qo‘ynidadagi joylarni qamrab olishni xohlaydi. Shu bilan birga turoperator hali ham tabiat qo‘ynidadagi joylar ekologik toza ekanligini hisobga olishi va tabiiy resurslaringizdan oqilona foydalanish kerak. Aslida, bu turoperatorlar tabiatni muhofaza qilishni qo‘llab-quvvatlashi kerak bo‘lgan juda muhim tomonlar, biz turizm soha mutaxassislari turistik mahsulotlar zanjirini yetkazib beruvchilarga ta'sir qilishimiz kerak, ularni ekologik yoqilg‘idan foydalanishga undashimiz kerak. Bugungi kunda soha mutaxassislari tomonidan, mahalliy aholimiz madaniyati darajasining oshishi haqida gapirishimiz kerak, chunki barqarorlik birinchi navbatda axlat yig‘ishdan boshlanadi. Masalan, uy-mehmon egalari axlatni ajratishni xohlamaydilar va ular uchun axlatni darhol axlat mashinasiga tashlash qulay. Mehmonxona, uy-mehmon egalari axlatni ajratishni o‘rgatish va buni rivojlantirish kerak. Mehmon uylar, mehmonxonalar egalari axlat qutisini talab qilmasligimiz kerak, ularda bu talab doim ishlashi kerak.

Turoperatorlar esa, sayyohlar uchun tabiiy hududlarda tashkil etilgan turlardan keyin, tabiiy hududlardan axlatlarini olib ketishlarini tashkil etishi lozim. Chunki obodonlashtirish tashkilotlari ushbu axlatni 24 soat ichida uzluksiz olib tashlashni ta'minlay olmaydilar. Va bu murossasizlik bizning jamiyatimizda ishlashi kerak.

Barqaror turizmni rivojlantirish:

Barqaror turizmni rivojlantirish - bu muhim tendensiya. Bu milliy bog‘larning yaratilishi. Tabiatga hurmat. Bu atrof-dagi muhitga minimal ta'sir ko‘rsatadigan sayyohlik yo‘nalishlarini yaratishdir. Barqaror turizmni rivojlantirish mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilash, ish o‘rinlarini yaratish, ba'zi maxsus korxonalarni tashkil etish va mahalliy aholining madaniyati va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga qaratilgan. Resurslardan mas'uliyat bilan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va ekologik mas'uliyatli sayyohlar sonini ko‘paytirish.

Turizmni barqaror rivojlantirish muammolari:

Atrof-muhitga ta'sir qilish orqali tabiatni ifloslanishiga olib keladi.

Ommaviy turizm tadbirlarini tashkil etishda madaniy merosimizni tijoratlashtirish orqali uni yo‘q bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ba'zi hududlarda iqtisodiy foyda ulushini noto‘g‘ri taqsimlanishi orqali, daromadni kata qismi tashkilotchi tomonga o‘tib, mahalliy aholi qisman daromad ko‘rishi mumkin.

Sayyohlik mavsumida, sayyohlarning katta oqimi kelishi oqibatida, yo‘llarni tirband bo‘lishiga, suv va energiyani ko‘p sarflanishi oqibatida resurslar tanqisligiga, infratuzilma bilan bog‘liq ko‘plab muammolariga olib keladi.

Turizmni barqaror rivojlantirish muhim, lekin bu sohada yaxshi natijaga erishish uchun, avval ko‘plab muammolarni bartaraf etish kerak. Rejalarni noto‘g‘ri rejalashtirilgani, moliyaviy tomondan cheklovlarni mavjudligi, salohiyatni oshirishdagi kamchiliklar va manfaatdor mutaxassislarning barqaror amaliyotlar to‘g‘risida yetarli tajribaga ega emasligi kiradi. Tabiatni asrashni rivojlantirishni muvozanatlashni tashkil etish, aholida tabiat ne‘matlarini adolatli taqsimlashni ta'minlash va turizmni rivojlantirishda mahalliy jamoalarning faolligini oshirish lozim. Barqaror turizm yaratayotgan imkoniyatlar ichiga, iqtisodiy yangi imkoniyatlarni yaratish, tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy merosimizni asrab-avaylash kiradi. Barqaror turizm, shuningdek, imtiyozlarni yanada adolatli taqsimlashga hissa qo‘shishi va qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantirishi mumkin.

Turizmni barqaror rivojlantirish imkoniyatlari:

Barqaror turizmni rivojlantirish orqali, atrof-muhit va bio xilma-xillikni asrash.

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali, chiqindilarni boshqarish dasturlarini ishlab chiqish va barcha mahalliy ekotizimlarimizni qo‘llab-quvvatlash kiradi.

Madaniy merosni saqlashga hissa qo‘shadigan turizm amaliyotlarini rag‘batlantirish. Bunga an'anaviy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash, muzeylar va mahalliy madaniyat haqida

ta'lim dasturlarini ishlab chiqish kiradi.

Mahalliy aholi o'rtasida turli turistik tashabbuslarni joriy qilish orqali, mas'uliyatli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish.

Sayyohlarning bir tekis taqsimlanishini tashkil etish va yangi turistik yo'nalishlar xilmaxilligini oshirish, uncha mashhur bo'lmagan hududlarni aniqlash va turistik destinaziyalarga kiritish.

Ishonchli, xavfsiz va sifatli xizmatlarni ta'minlash.

Sayyohlar uchun tashkil etilayotgan xizmatlarda yuqori standartlarga amal qilish.

Sayyohlar va hamkorlar bilan ishonchli ma'lumotlar bilan ishlashni tashkil etish.

Iste'molchilar bilan samarali hamkorlik qilish.

Turizm tizimida tadbirkorlik qilish uchun imkoniyatlar yaratish.

Barqaror turizm tizimi faoliyatini samarali tashkil etishda, samarali rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish.

Qonunchilikdagi ba'zi qonunlarga o'zgartirish kiritish orqali yangilash, atrof-muhitni asrash maqsadida yangi standartlar va turistlar uchun o'zini tutish kodekslarni ishlab chiqish.

Barqaror rivojlanish tizimini qo'llaydigan korxonalarni sertifikatlashdan o'tkazish.

Turizm sifati, ishonchli, xavfsiz xizmatlarni tashkil etilishi, barqaror turizmni muvaffaqiyatli rivojlantiradi.

Davlatimiz tomonidan oxirgi zamon tendensiyalari va axborotlar bilan mutaxassislarni ta'minlab borishi, tadbirkor va sayyohlikni rivojlanishi uchun yaxshi sharoitlar yaratilishini talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Ham farovon iqtisodiyotni, ham atrof-muhitni muhofaza qilishda, ham ijtimoiy adolatni ta'minlay oladigan barqaror turizmni rivojlantirish, bu qiyin masala. Ammo bu masala, ayni paytda dunyo oldida turgan muhim muammolarni hal qilish uchun katta imkoniyatdir. Hozirgi davrda turizm tizimi soha mutaxassislari, siyosatchi va davlat arboblari turizmni barqaror rivojlantirishga doir muammolarni hal qilish va turizmdan keladigan iqtisodiy-ijtimoiy manfaatlarni oshirish uchun birgalikda harakat qilishlari kerak. Barqarorlikni ushlab turish orqali, kelajak avlodlarimiz ehtiyojlarini buzilmaslikdan asrash uchun, bugungi ehtiyojlarimizga javob beradigan ishonchli va rivojlangan barqaror turizm sanoatini yaratishimiz mumkin.

Maqola tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, atrof-muhitni himoya qilishni to'g'ri tashkil etish, madaniyatimizni asrash va iqtisodiy tomondan barqaror bo'lish, barqaror turizmni ta'minlashga qaratiladi. Turizmda ko'payotgan bosimlar, muammolar, foydalanilayotgan resurslarning inqirozlari ko'plab muammolarga olib kelishi mumkin.

Barqaror turizmni rivojlantirishda, barqarorlik ko'rsatkichlarni ishlab chiqish orqali ekologik hisobotlar qilish. Sayyohlar uchun ishonchli turizmni targ'ib qilish. Sohaga mahalliy aholini jalb qilishga maksimal yondashish orqali, ularni manfaatlarini himoya qilish. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda mahalliy mahsulotlardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Butler, R. va Hinch, T. (tahrirlar). (2007). Turizm va mahalliy xalqlar: muammolar va oqibatlar. Buttervort-Xaynman.
2. Kater, K. (2018). Turizm va barqaror rivojlanish: rivojlanish, globallashuv va uchinchi dunyoda yangi turizm. Teylor va Frensis.
3. Fennell, D. (2019). Ekoturizm. Routledge.
4. Hunter, K. (Tahr.). (2002). Kelajakdagi sayyohlik yo'nalishlarini himoya qilish. Jahon turizm tashkiloti.
5. UNWTO (2017). Barqaror turizm sari. Global barqaror turizm hisoboti. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti.
6. Weaver, D. (2014). Barqaror turizm: nazariya va amaliyot. Routledge.
7. JST (2018). Turizmning diqqatga sazovor joylari, 2018 nashri Jahon sayyohlik tashkiloti.

<p>Н.Абдувахидова</p> <p>Проблемы и возможности в устойчивом развитии туризма</p>	<p>N.Abduvakhidova</p> <p>Challenges and opportunities in sustainable tourism development</p>
<p>Аннотация. Статья посвящена проблемам и возможностям, связанным с устойчивым развитием туризма. Автор данной статьи рассматривает проблемы, с которыми сталкивается индустрия туризма для обеспечения баланса экологической, социальной и экономической устойчивости. В статье выделены перспективы и стратегии для решения вызовов и достижения устойчивого туристического развития.</p> <p>Ключевые слова: устойчивый туризм, охрана окружающей среды, вовлечение общества, ответственное путешествие.</p>	<p>Abstract. The article is devoted to the problems and opportunities related to the sustainable development of tourism. The author of this article examines the challenges faced by the tourism industry to ensure a balance of environmental, social and economic sustainability. The article highlights prospects and strategies for addressing challenges and achieving sustainable tourism development.</p> <p>Keywords: sustainable tourism, environmental protection, community involvement, responsible travel.</p>

Фарход Абдувахидович Бекназаров – СамИСИ, “Туризм” кафедраси доценти,
Азиза Пирмаматовна Махмудова – СамИСИ, “Туризм” кафедраси доценти

**МАМЛАКТИМИЗ ЭКОТИЗИМИ ВА МАДАНИЙ МЕРОСИНИ САҚЛАШДА
 САҚЛАШ ҲАМДА МИНТАҚАДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА
 ГЕОПАРКЛАРНИНГ ЎРНИ**

Аннотация. Ушбу мақолада юртимиз экотизимини, маданий меросини сақлашда, мамлакатимизда туризм соҳасининг истиқболли йўналиши экотуризмни ривожлантиришда геопаркларнинг ўрни ва роли кенг ёритилиб, бу борада муаллифлик ёндашувлари илгари сурилган.

Калит сўзлар: экотуризм, геологик ресурслар, геотуризм, геоахборот тизимлари, тарихий-маданий бойликлар, қояли битиклар ва петроглифлар, инновацион технологиялар, биологик хилма-хиллик.

Кириш. Яшил иқтисодиёт ва яшил туризмни ривожлантириш шароитида туризмнинг инновацион турларининг ривожланиши нафақат уни маълум бир ҳудудда диверсификациялашга, балки туристлар учун ушбу ҳудуднинг жозибдорлигини оширишга ҳам қаратилган. Бу каби инновацион турларга геотуризм киради, бу умумий маънода ноёб геологик объектлар (ёдгорликлар)га асосланган таълим туризмнинг йўналиши ҳисобланади. Ҳозирги вақтда геотуризм дунёнинг кўплаб мамлакатларида ўсишни бошдан кечирмоқда ва туризм соҳасининг мустақил секторини шакллантиришга ва ривожлантиришга хизмат қилмоқда.

Геотуризмнинг таркибий қисми бўлган геопарклар минтақанинг геологик меросининг бугунги кунда тарих ва жамиятдаги аҳамияти ҳақида хабардорликни ошириш орқали маҳаллий аҳолига ўз минтақаси билан фахрланиш туйғусини беради ва уларнинг ҳудуд билан ҳамнафаслигини кучайтиради. Ҳудудларда глобал геопаркларни ташкил қилиш ва ривожлантириш маҳаллий аҳолининг геотуризм орқали янги иш жойлари орқали даромад манбаларини яратишда, экологик ва маънавий маданиятини юксалтиришда муҳим омил бўлиб ҳисобланади.

Геотуризм экологик туризмнинг бошқа турлари билан биргаликда ривожланиши маҳаллий аҳолига янги асосий ёки қўшимча даромад манбаларини топиш имконини беради, бу эса иш ўринлари сонининг кўпайишига ва аҳоли турмуш даражасини босқичма-босқич оширишга олиб келади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Мамлакатимизда экотуризмни ривожлантириш масалалари бўйича бир қатор иқтисодчи олимларнинг илмий ишларида ва тадқиқотларида кенг ёритилган. Хусусан, Қ.Х.Абдурахмонов, М.Р.Болтабаев, И.С.Тухлиев, М.Т.Алимова, Е.В.Гольшева, М.Қ.Пардаев, Б.Ш.Сафаров, С.А.Абдухамидов ва бошқаларнинг тадқиқот-

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.